



ELLIPSIS TIL VOSITALARINI TEJASHNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Begmatov Quvonchbek Muxtarovich
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD

Narmatova Baktygul Baltabaevna
f.f.n. dotsent, Qirg'iziston-Qozoq universitetining
EP Tilshunoslik va pedagogika kafedrasini mudiri

***Annotatsiya.** Ushbu maqola tilshunoslikdagi dolzarb muammolardan biri – ellipsis hodisasiga bag'ishlangan. Ellipsis til vositalarini tejash va nutqni sodda, ta'sirchan qilishning universal usuli hisoblanadi. U XVIII-XIX asrlarda tilshunoslar (K.F. Bekker, A. Noren) tomonidan grammatik hodisa sifatida o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik Fleysher uni leksik nuqtai nazardan ham izohlagan. Hozirgi tadqiqotlarda esa ellipsis nafaqat ega yoki kesimning tushirilishi, balki artikl, ko'makchi va qo'shma so'z qismlarining chiqib qolishi bilan ham bog'liq ekani ta'kidlanadi. Uning asosiy vazifasi – ortiqcha birliklarni qisqartirish, matnni ixcham va ifodali qilish hamda muallifning individual uslubini namoyon etishdir.*

***Kalit so'zlar:** ellipsis, til vositalarini tejash, grammatik hodisa, leksik hodisa, sintaksis, stilistika, nutq ixchamligi, ta'sirchanlik, individual uslub.*

KIRISH.

Ellipsis hodisasi ham boshqa sintaktik-stilistik hodisalar kabi uzining uzoq o'rganilish tarixiga ega. Ushbu masala bundan ikki asr oldin ilk bor germanshunos olimlarning diqqat-e'tiborlarini jalb qilgan edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, germanshunos olim K.F. Bekker o'zining “Ausfuhrliche deutsche Grammatik als Kommentar der Schulgrammatik” nomli grammatika darsligida ellipsis hodisasiga uchragan quyidagi gaplarni keltirib, “die Sache aus”, “der Fisch im Wasser”, “der Hut ab!”, “die Tür zu!” kabilarni misol qilib ko'rsatadi (K.F. Becker, 1837, s. 84), olim ularni elliptik gaplar deb nomlagan edi, chunki ushbu gaplar tarkibida “sein”, “legen”, “machen” kabi fe'l-kesimlar o'rnida keluvchi fe'llar qo'llanilmaydi. Demak, gaplar tarkibida fe'l-kesimlarning qo'llanmasligi ellipsis hodisasiga ishora kiladi. Ellipsis hodisasiga nisbatan nemis olimi K.F. Bekkerdan tashqari boshqa germanshunos olimlar ham o'z munosabatlarini bildirib, ellipsisning doirasini kengaytirishga ulkan hissa qo'shishgan. Ana shunday olimlardan biri shved olimi A. Norendir. A. Norenning ta'kidlashicha, ellipsis hodisasi faqatgina gaplar tarkibidan fe'l-kesimning tushirib qoldirishi bilan emas, balki bog'lovchilar, ko'makchilar, shuningdek, artikllarning tushirib qoldirishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ham qamrab olishi mumkin. Agar K.F. Bekker, A. Noren kabi olimlar ellipsis hodisasiga grammatik nuqtai nazardan yondashgan bo'lsa, ya'ni ellipsis hodisasini grammatik hodisa sifatida tahlil qilgan bo'lsalar, taniqli nemis olimi V. Flaysher esa unga leksik hodisasi sifatida yondashgan. Natijada u leksik ellipsisni tadqiq qilgan. Leksik ellipsisni V. Flaysher ikki guruhga, ya'ni “Kopfwörter”, “Schwanzwörter” guruhlariga bo'lib o'rganadi. “Kopfwörter” tushunchasi bo'yicha so'zlarning ikkinchi qismi, ya'ni “dumi” ellipsis hodisasiga uchraydi, boshqacharoq qilib aytganda, tushirilib qoldiriladi.

Masalan: 1. Labor (torium), Lok (amotive), Kondi (torei), Limo (nade), Uni (versität) va boshqalar.

Demak, bu yerda so'zlarning qavs ichiga olingan qismlari tushirilib qoldiriladi, ya'ni ellipsisga uchraydi.

Ta'kidlash joizki, “Schwanzwörter” tushunchasi asosida biz yuqorida sodir bo'lgan voqeaning aksini ko'ramiz, bu yerda so'zning boshi, aniqroq qilib aytganda, bosh qismi tushirilib qoldiriladi va ellipsisga uchraydi.

Masalan: 2 (Omni) bus, (Schalt) platte, (Fahr) rad, (Ton) bad. (Regen) schirm, (Eisen) bahn, (Radio)



empfänger va boshqalar. Demak, ellipsis – bu qo‘shma so‘zlardan birining tushirilib qoldirishidir, ya‘ni til vositalarining tejash usullaridan biridir.

Ko‘plab tilshunos-olimlarning ellipsis hodisasi to‘g‘risida bildirgan fikr-mulohazalariga asoslanib, shuningdek, badiiy matn ustida olib borilgan uzoq yillik kuzatishlar natijalariga tayangan holda shu narsani alohida ta‘kidlash lozimki, ellipsis hodisasi doirasi faqatgina gap tarkibidan kesimning yoki qo‘shma so‘zlar tarkibidan biron-bir bo‘lakning tushirilib qoldirilishi bilan chegaralanib qolmaydi. Aytish joizki, tilshunoslikdagi bu hodisa matn tarkibidan istalgan gap bo‘lagining tushirilib qoldirilishi natijasida sodir bo‘ladigan transformatsion o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shu sababli ellipsis hodisasi, olimlar tomonidan ta‘kidlab o‘tilganidek, faqatgina leksik va grammatik hodisa sifatida emas, balki stilistik hodisa sifatida ham kitobxonning diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qilishi kuzatiladi. Ma‘lum bir gap yoki matn tarkibidan biror bo‘lakning tushirilib qoldirilishi uchun ularda aniq muhit yoki kontekstual vaziyat bo‘lishi talab etiladi. Aytish joizki faqat ular yordamidagina tushirilib qoldirilgan bo‘laklar qayta tiklanishi mumkin. Bunday tushirilib qoldirilgan bo‘laklar gap yoki matnning mazmuniga ta‘sir qilmaydi, aksincha, tasvirlanayotgan voqea-hodisaga e‘tiborni kuchaytirishga undaydi. Bunday holat esa tushirilib qoldirilgan bo‘lakning o‘rni bosuvchi elementni qayta tiklashga yordam beradi. Bunday xususiyatlarni quyidagi misollar tahlilida kuzatish mumkin.

Masalan: 3. Marie hat Herdruss an den Händen, die Küchenschürze ist nicht sauber, sie kann immerzu eine frische (-) umbinden (J. Harder, S. 212).

Masalan: 4. Er ist nie auf diesen Boden gewesen, yer (-) nicht und nicht Engmann (-). (J. Harder, S. 181).

Demak, ushbu misollarda ellipsis gaplar keltirilgan. Ellipsis gaplar tarkibidan tushirilib qoldirilgan komponentlarni aniqlash maqsadida shartli ravishda (-) - qavs + tire belgisini qo‘lladik. Bunday ramziy belgilar har xil shakllarda bo‘lishi ham mumkin, biroq, biz bu yerda qavs + tire, ya‘ni (-) ni tanladik. Agar biz transformatsion metoddan foydalanib, elliptik gaplarni odatdagi to‘liq gaplarga aylantirsak, u holda ular quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Masalan: A. Marie hat Herdruss an den Händen, die Küchenschürze ist nicht sauber, sie kann immerzu eine frische Küchenschürze umbinden.

Masalan: B. Er ist nie auf diesem Boden gewesen, er ist nicht gewesen, und Engmann ist auch nicht gewesen.

Transformatsion metod yordamida u yoki bu gapni to‘liq holga keltirish unchalik mushkul jarayon emas, balki ayrim hollarda ba‘zi bir o‘zgarishlar kiritishga to‘g‘ri keladi. Masalan 4-raqamli misol tarkibiga ba‘zi bir o‘zgarishlar kiritdik. Agar bu yerda -auch yuklamasi kiritilmaganda edi, bu gaplar orasida mantiqiy bog‘likliklar yuzaga kelmagan bo‘lar edi. Auch -ning bu yerda kiritilishi, birinchidan, gaplar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnatishga, ikkinchidan, esa oxirgi gapda so‘z tartibini ma‘lum darajada o‘zgartirishga yordam beradi.

Biz bu yerda transformatsion metoddan foydalangan holda gap tarkibidan tushirib qoldirilgan komponentni ko‘rsatishga xarakat qildik, xolos. Biroq kutilgan natijalar bunday usullarda sodir bo‘lavermaydi, chunki ellipsisning ham qonun-qoidalari mavjud va u ana shu konun qoidalari asosida harakat qiladi hamda unga buysinadi. Ellipsisga xos bo‘lgan bunday qonun-qoidalar 3,4 rakamli misollar tarkibida mavjud bo‘lgan muxit, vaziyat va kontekstual imkoniyatlar bilan belgilanadi.

3, 1-rakamli misollarda bunday vaziyatlar, kontekstual muhitlar, bir tomondan, Küchen-schürze, - ist gewesen - kabi komponentlar yordamida yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan esa, ularning shu gaplar ichida boshqa gap bo‘laklariga nisbatan tutgan mazmuniy munosabatlari natijasida yuzaga keladi.

“Ellipsis hodisasi, o‘z navbatida stilistik hodisadir. Yozuvchilar bunday stilistik figuralardan aniq, stilistik maqsadlar uchun foydalanadilar: birinchidan, til vositalarini tejash yo‘li bilan gap strukturasini soddalashtirishga erishiladi, gap strukturasining soddalashuvi natijasida tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ta‘sirchanligi, emotsionalligi kuchayadi; ikkinchidan, ellipsis hodisasi o‘z tabiati bilan ko‘p qirrali hodisadir. Shuning uchun ham uni boshqa sintaktik va stilistik hodisalar bilan o‘zaro bog‘liqlik holatlarda o‘rganish maqsadga muvofiq, ayniqsa, uni til ekonomiyasining asosiy omillaridan biri sifatida o‘rganish ayni muddaodir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Becker K.F. Ausführliche deutsche Grammatik als Kommentar der Schulgrammatik. - Frankfurt amMain, 1937.-598 s.
2. Fleischer W. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. - Leipzig, 1969, s. 210-213.
3. Noreen A. Einführung in die wissenschaftliche Betrachtung der Sprache. Halle (Saale), 1923. - 267 s.
- ?? Aslanova, H. (2020). The concept of features of «Beauty» in the creative heritage of Gadoi. JOURNAL of CRITICAL REVIEWS (ISSN-2394-5125. Vol 7. ISSUE 15.2020. SCOPUS Q4, 6 H index), 2672-2676.
- ?? Abdurakhimovna, A. H. (2018). ACQUIRING PROFICIENCY IN CREATING SYMBOLS AND LITERARY ART IN GADOI’S POETRY. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 274.
- ?? Abdurakhimovna, K. S., & Dilchiroy, A. (2021). Ancient Proverbs. European Scholar Journal, 2(4), 95-99.
- ?? Асланова, Х. А. (2014). ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРВЫХ ТЮРКСКИХ ДИВАНОВ І И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ КОМПОЗИЦИЯ ДИВАНА ГАДОИ. The Way of Science, 33.
- ?? Aslanova, H. A. UDK: 891.709 ЁОДИЙ МУТАНОСИБЛИК ВА ГАДОЙЎ ЁОДИ. ILMIY AXBOROTNOMA, 22.
9. Aslanova, H. A. (2022). INDIVIDUAL EXPRESSION OF THE OBJECT OF THE TRADITIONAL IMAGE IN THE LYRICS BY GADOY. Вестник магистратуры, (11-5 (134)), 138-140.